

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI

Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Email: baxtishka5199990@yandex.com

ORCID: 0009-0002-4431-6659

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/711

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarining likvidlik muammolari, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda bank tizimida likvidlik darajasining pasayishi, qisqa muddatli majburiyatlarning ortishi va depozit bazasining beqarorligi kuzatilmoqda. Tadqiqotda likvidlikni ta'minlashning nazariy asoslari, Markaziy bank siyosatining ta'siri hamda tijorat banklarida likvidlik boshqaruvining amaliy jihatlarini o'rganilgan. Maqola yakunida bank likvidligini oshirish bo'yicha takliflar – aktivlarni diversifikatsiya qilish, resurs bazasini mustahkamlash va raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, likvidlik, likvid aktivlar, moliyaviy barqarorlik, resurs bazasi, Markaziy bank siyosati, risklarni boshqarish.

ПРОБЛЕМЫ ЛИКВИДНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Рузиев Бахтиёр Салимбоевич

Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного экономического университета, преподаватель Ташкентского государственного университета востоковедения

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы ликвидности коммерческих банков Узбекистана, причины их возникновения и пути решения. Отмечается снижение уровня ликвидности и рост краткосрочных обязательств в банковской системе. Исследованы теоретические основы обеспечения ликвидности, влияние политики Центрального банка и практика управления ликвидностью в коммерческих банках. В заключение предложены направления повышения ликвидности – диверсификация активов, укрепление ресурсной базы и внедрение цифровых финансовых технологий.

Ключевые слова: коммерческие банки, ликвидность, ликвидные активы, финансовая устойчивость, ресурсная база, политика Центрального банка, управление рисками.

LIQUIDITY PROBLEMS IN COMMERCIAL BANKS AND THEIR SOLUTIONS

Ruziev Bakhtiyor Salimboyevich

Independent researcher at Tashkent State University of Economics, lecturer at Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract

This article analyzes the liquidity problems of commercial banks in Uzbekistan, their underlying causes, and potential solutions. In recent years, the banking sector has faced declining liquidity levels, an increase in short-term liabilities, and instability in the deposit base. The study explores the theoretical foundations of liquidity management, the impact of Central Bank policies, and practical aspects of liquidity regulation in commercial banks. The article concludes with recommendations to enhance liquidity through asset diversification, strengthening the resource base, and implementing digital financial technologies.

Keywords: commercial banks, liquidity, liquid assets, financial stability, resource base, Central Bank policy, risk management.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida bank tizimi islohotlari jadallashib, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi roli ortmoqda. Shu bilan birga, banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lgan likvidlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Likvidlik — bu bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, ya'ni to'lovga layoqatliligini saqlab qolish qobiliyatidir. So'nggi yillarda tijorat banklari likvidlikni boshqarish bo'yicha muhim natijalarga erishgan bo'lsada, qisqa muddatli depozitlarning yuqori ulushi, uzoq muddatli kreditlarning ortishi va monetizatsiya darajasining pastligi bu jarayonni murakkablashtirmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda banklararo likvidlik ko'rsatkichi (LCR) o'rtacha 105–110% ni tashkil etgan, biroq ayrim banklarda qisqa muddatli aktivlar yetishmovchiligi saqlanib qolgan. Mazkur sharoitda tijorat banklari oldida ikki muhim vazifa turibdi: birinchisi — likvidlikni me'yorda ushlab, to'lov qobiliyatini ta'minlash, ikkinchisi — aktivlardan olinadigan daromadlilikni oshirish. Shu bois, likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, risklarni kamaytirish va moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish zarurdir. Mazkur maqola O'zbekiston tijorat banklarida likvidlik muammolarining sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston sharoitida likvidlik muammolari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Iqtisod fanlari doktori, professor A.Omonov “Pul, kredit va banklar” nomli o'quv qo'llanmasida tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishdagi muvozanatsizliklar likvidlik tanqisligiga olib kelishi mumkinligini qayd etadi¹. Muallif, ayniqsa, depozitlarning qisqa muddatli, kreditlarning esa uzoq muddatli bo'lishi natijasida vujudga keladigan “likvidlik tafovuti” muammosini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, R.S.Sharma o'zining “*Issues in liquidity management in banking system*” maqolasida banklar duch keladigan likvidlik muammolarini tizimli tahlil qilgan. Unga ko'ra, banklar balansidagi aktiv va majburiyatlarning muddat bo'yicha nomutanosibligi, depozit bazasining beqarorligi hamda ortiqcha kredit ekspansiyasi likvidlik muammolarining asosiy manbalaridir². Muallif, shuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati va likvidlik rezervlari normativlarini takomillashtirish orqali bu muammolarni yumshatish mumkinligini ta'kidlaydi.

¹ <https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2022/12/Pul-kredit-va-banklar.-OMONOV.pdf>

² <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23322039.2022.2122190>

S. Sundaresan esa likvidlikni tartibga solishning nazariy asoslari va amaliy dalillari yoritilgan. Muallifning fikricha, likvid aktivlar darajasi bilan bank barqarorligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud: bank qancha ko'p likvid aktivga ega bo'lsa, u shuncha tez o'z majburiyatlarini qoplash imkoniga ega bo'ladi. Shu sababli, Liquidity Coverage Ratio (LCR) va Net Stable Funding Ratio (NSFR) kabi ko'rsatkichlar bank faoliyatida muhim nazorat vositasi sifatida ko'riladi³.

Metodologiya

Tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024 yillardagi statistik ko'rsatkichlari asosida tahliliy va qiyosiy usullar qo'llanildi. Ma'lumotlar Markaziy bank, Jahon banki va tijorat banklari hisobotlaridan olindi. Tahlil natijasida likvidlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, uni boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Undan tashqari induksiya, deduksiya, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlik va to'lovga layoqatlilikni ta'minlashda likvidlik tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Likvidlik — bu bankning o'z zimmasidagi moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyatini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya bo'lib, u bank resurslarining naqd shaklga osonlik bilan aylanish qobiliyatini aks ettiradi. Bank likvidligining yetarli darajada bo'lishi mijozlar ishonchini saqlash, to'lov tizimining uzluksiz ishlashi va moliyaviy tizimning umumiy barqarorligini ta'minlaydi.

Amaliy jihatdan likvidlik bank balansining tarkibi orqali namoyon bo'ladi: ya'ni, likvid aktivlar (naqd pul, Markaziy bankdagi hisobvaraqlardagi mablag'lar, qisqa muddatli investitsiyalar) bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyatini beradi. Bunda aktiv va majburiyatlarning muddat jihatidan muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bankning qisqa muddatli aktivlari yetarli bo'lmasa, u majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa moliyaviy ishonchlilikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank likvidligining asosiy vazifalari — to'lov qobiliyatini ta'minlash, kutilmagan pul oqimlari o'zgarishiga moslashish, risklarni minimallashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishdir. Shu bois, likvidlikni boshqarish bank boshqaruvining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u strategik qarorlar, pul oqimlari prognozi hamda Markaziy bank siyosati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston tijorat banklarining likvidlik holati umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan barqaror bo'lib, xalqaro me'yorlardan yuqori darajada saqlanmoqda. Markaziy bankning 2025 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimi bo'yicha likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) o'rtacha 194 foizni tashkil etmoqda, bu esa minimal 100 foizlik xalqaro normativdan ancha yuqori ko'rsatkichdir. Shu bilan birga, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) ham 111–112 foiz atrofida bo'lib, tijorat banklarining uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yetarliligini ko'rsatadi. Biroq tizimdagi bu ijobiy o'sish sur'atlariga qaramay, ayrim banklarda likvidlikning sifati va tarkibiy barqarorligi bo'yicha muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, qisqa muddatli majburiyatlarning ulushi yuqori bo'lib, uzoq muddatli aktivlar bilan ularning to'liq muvofiqligi ta'minlanmagan. 2024 yil yakunlariga ko'ra, bank tizimida likvid aktivlar ulushi jami aktivlarning 18 foizini tashkil etgan, bu esa xalqaro tavsiyalarga nisbatan nisbatan past daraja hisoblanadi. Natijada, ayrim tijorat banklarida

kunlik (operatsion) likvidlik yetishmovchiligi yoki to'lov tizimidagi qisqa muddatli uzilishlar kuzatilgan.

Depozit bazasining tarkibida qisqa muddatli omonatlarning ustunligi ham likvidlikni boshqarishda muhim xavf omili bo'lib qolmoqda. Xususan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari hajmi oshgan bo'lsa-da, ularning o'rtacha saqlanish muddati qisqa. Bu esa uzoq muddatli kreditlash faoliyatini cheklaydi hamda bank resurslari barqarorligini pasaytiradi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida monetizatsiya darajasining pastligi (2024 yilda 20,3 foiz atrofida) bank tizimining ichki likvidlik salohiyatini to'liq faollashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston tijorat banklari likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy barqarorlikni saqlab qolayotgan bo'lsa-da, ularning resurs bazasi tarkibida qisqa muddatli majburiyatlarning ustunligi, likvid aktivlar ulushining pastligi va moliyaviy bozor infratuzilmasining cheklanganligi mavjud xavf omillari sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat banklar oldida likvidlikni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish, resurslar tuzilmasini diversifikatsiya qilish va bozor asosidagi moliyaviy instrumentlar ulushini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

1-jadval

Bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari⁴

Sana	Yuqori likvidli aktivlar, mlrd. so'm	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffisienti, foizda (minimal talab - 100 foiz)	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori, foizda (minimal talab - 100 foiz)	Lahzali likvidlilik koeffisienti, foizda (minimal talab - 25 foiz)
01.01.2020 y.	30 873,8	11,3	208,5	112,8	47,8
01.01.2021 y.	50 475,7	14,2	224,5	109,9	67,4
01.01.2022 y.	75 992,2	17,7	189,6	115,4	99,3
01.01.2023 y.	104 472,9	19,4	211,6	115,6	110,1
01.01.2025 y.	133 228,9	17,3	193,8	115,3	112,3

Jadvaldagi ma'lumotlar asosida O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2025-yillardagi likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bank tizimi ushbu davrda likvidlikni ta'minlash bo'yicha nisbatan barqaror holatni saqlab kelmoqda.

2020 yilda yuqori likvidli aktivlar hajmi 30,9 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 133,2 trillion so'mga yetgan, ya'ni 4 baravarga yaqin o'sish kuzatilgan. Bu o'sish banklar resurs bazasining kengaygani va Markaziy bank tomonidan likvidlikni qo'llab-quvvatlash siyosati natijasi sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, yuqori likvid

aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 2020 yildagi 11,3 foizdan 2025 yilda 17,3 foizgacha oshgan. Bu o'zgarish banklarning qisqa muddatli to'lovga layoqatliligini mustahkamlash yo'lida ijobiy natija sifatida baholanadi.

Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 2020 yilda 208,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda 193,8 foiz atrofida shakllangan. Har ikkala davrda ham bu ko'rsatkich xalqaro talab – 100 foizlik normativdan ancha yuqori bo'lib, bank tizimi qisqa muddatli likvidlik xavflarini to'liq qoplash imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) 2020 yildagi 112,8 foizdan 2025 yilda 115,3 foizgacha o'sib, banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini bildiradi.

Shuningdek, lahzalik likvidlik koeffitsienti ham izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2020 yilda bu ko'rsatkich 47,8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 112,3 foizga yetgan, bu esa banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini zudlik bilan bajarish salohiyati keskin yaxshilanganini anglatadi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda likvidlik muammosi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank tizimining barqaror ishlashi, mijozlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiyotda pul aylanishining uzluksizligini ta'minlash ko'p jihatdan banklarning likvidlik darajasiga bog'liqdir. Likvidlikning yetarli bo'lishi nafaqat bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishini kafolatlaydi, balki umumiy iqtisodiy muvozanatning saqlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, likvidlikni boshqarish har bir tijorat banki faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborda bo'lishi zarur.

So'nggi yillarda O'zbekiston tijorat banklarida likvidlikni ta'minlash bo'yicha sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim holatlarda qisqa muddatli majburiyatlar ulushi yuqoriligi, resurs bazasining beqarorligi va likvid aktivlar ulushining pastligi kabi omillar tizim barqarorligiga bosim o'tkazmoqda. Shu bois, banklarda likvidlik siyosatini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Aktiv va majburiyatlar muvozanatini ta'minlash. Banklarda aktiv va passivlarning muddat jihatidan mosligini kuchaytirish, uzoq muddatli kreditlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish zarur.

2. Likvid aktivlar portfelini kengaytirish. Yuqori sifatli likvid aktivlar ulushini oshirish, qisqa muddatli investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va bozor likvidligini chuqurlashtirish lozim.

3. Depozit bazasini barqarorlashtirish. Aholi va yuridik shaxslarning muddatli depozitlarini rag'batlantirish orqali qisqa muddatli majburiyatlar ulushini kamaytirish maqsadga muvofiq.

4. Likvidlik boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish. Real vaqt rejimidagi pul oqimlarini prognozlovchi tizimlardan foydalanish banklarning tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

5. Markaziy bank siyosatini takomillashtirish. Likvidlikni qo'llab-quvvatlovchi monetar instrumentlar – qayta moliyalash, repo operatsiyalari va majburiy zaxiralar normasi orqali banklararo likvidlikni barqaror saqlash zarur.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarida likvidlik holati barqaror bo'lsa-da, bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi banklardan likvidlikni boshqarishning ilg'or

yondashuvlarini talab etadi. Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, bank tizimining to‘lovga layoqatliligi, moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotdagi ishonch darajasi yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimi ko‘rsatkichlari 2020–2025.” – Toshkent: www.cbu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. “Bank-moliya tizimini isloh qilish strategiyasi 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan.” PF–5992-son, 2020 yil 12 may.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish va raqamli rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” PQ–3270-son, 2017 yil 12 sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Moliyaviy barqarorlik to‘g‘risidagi hisobot.” – Toshkent, 2024.
5. Jahon banki (World Bank). “Uzbekistan Financial Sector Assessment.” – Washington D.C., 2023.
6. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF). “Financial Soundness Indicators: Country Report – Uzbekistan.” – Washington D.C., 2024.
7. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). “Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and liquidity risk monitoring tools.” – Bank for International Settlements, 2013.
8. Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 12th Edition. Pearson Education.
9. Rose, P. S. & Hudgins, S. C. (2018). *Bank Management & Financial Services*. 10th Edition. McGraw-Hill Education.
10. Demirgüç-Kunt, A. & Levine, R. (2008). *Finance, Financial Sector Policies, and Long-Run Growth*. The World Bank Research Observer.
11. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Merrouche, O. (2013). *Islamic vs. Conventional Banking: Business Model, Efficiency, and Stability*. *Journal of Banking and Finance*, Vol. 37.
12. Akhunov, A. (2022). “Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.” – TDIU Ilmiy jurnali, №3.
13. Nabiyev, B. (2023). “O‘zbekiston tijorat banklari likvidligini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari.” – “Moliyaviy tahlil va iqtisodiy islohotlar” jurnali, №2.